



XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING BOLALAR ADABIYOTI SIFATIDAGI O'RNI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Boboqulova Mohina Norsafar qizi

mohinaboboqulova689@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya
fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15189404>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 05-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 10-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

folklor, bolalar adabiyoti, mif, afsona, animistik qarashlar, allegorik xususiyat, abstrakt tushunchalar, fantastika.

ABSTRACT

Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarining bolalar adabiyoti sifatida umumta'lim muassasalarida o'qitilishi va uning bolalarning ruhiy hamda aqliy tarbiyasiga ta'siri tahlil etilgan. Maqolada xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, dostonlar va boshqa janrlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, ularning bolalar dunyoqarashi va axloqiy shakllanishiga ijobiy ta'siri yoritiladi.

Folklor namunalarining yaratilishi insonning olam haqidagi dastlabki dunyoqarashlarini ifodalovchi mif, afsona, rivoyat kabilardan ayri tarzda yuz bermaganidek, ularning hozirgi kundagi faktik haqiqatlardan uzoqligi xalq og'zaki ijodiyoti sifatidagi qimmatini yo'qotishiga sezilarli darajada ta'sir qilmoqda. Chunki odam o'zini o'rab turgan muhitning mohiyatini anglashda, asosan, aniq va tabiiy fanlar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijasiga asoslanib qaror chiqarishni boshladi. Globallashuv asri va axborot texnologiyalari rivojining ta'siri tobora oshib borgan sayin bu jarayon ham izchillashib boryapti. Ammo insonning ushbu nazariyalarni anglash va shu doirada fikrlay olish darajasigacha shunday bosqich mavjudki, bu odamning shaxs sifatidagi shaxsiyatining shakllanishida muhim davr hisoblangan bolalik va o'spirinlik deb ataladi. Bolalik davri, aynan 6-10 yoshgacha bo'lgan bolalarning borliq haqidagi fikrlarida folklor namunalarida kuzatilganidek animistik, totemistik qarashlar ustunlik qilishini ko'rish mumkin. Shu jihatdan, xalq og'zaki ijodi degan qamrovda o'rganiladigan ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, matal va boshqalarni bola tarbiyasi va uning fikrlash tarzidagi yuksalishni ta'minlashda muhim ahamiyat ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jamiyatning azaliy dolzarb masalalaridan bo'lgan jismonan, ruhan va ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalash va unga g'amxo'rlik qilishda adabiyotning, xususan, bolalar adabiyotining ham alohida o'rini bor. Kaliforniya universiteti professori, amerikalik folklorshunos olim Alan Dundesning fikriga ko'ra, bolalar adabiyoti deganda bolalar tomonidan boshqa bolalar uchun ijro etiladigan ularning og'zaki ijodi, ularning folklori va urf-odatlarini tushunish hamda o'qituvchi va ota-onalar bolalarga yuklaydigan materiallar (yozma asarlar, she'rlar va h.k.) dan farqlash kerak. Chunki hozirgi kunda bolalar adabiyotidagi asarlar bolalar dunyoqarashidan ko'ra ko'proq kattalarning fikrlash doirasidagi voqeliklardan ma'lumot beradi [4, 61]. Masalan, 6 yoshli bolaning animistik qarashlarida Quyosh nur bergani, kun

bo'yi Yer atrofida (aksincha ekanligi bolaning mantig'iga tog'ri kelmaydi) aylangani uchun tirik bo'lsa, toshlar balandlikdan tushib kelayotganda xuddi yugurganday ko'rinib, o'zining jonli ekanligi haqida tasavvur uyg'otadi. Chunki bolalarda jonli va jonsiz narsalarni ajratish uchun aniq chegara hali shakllanmagan bo'ladi. Ular daraxtlar, toshlar, hayvonlar va atrofini o'rab turgan jismlar bilan gaplashishni xohlashadi. Sababi: bolalar ular bilan bo'lgan munosabatda hech qanday reaksiya ko'rmas-da, ularda ham ruh borligiga va odamlar kabi harakat qila olishlariga ishonishadi. O'qituvchi yoki ota-onalarining tushuntirishlariga qaramay ular faqat o'zlarining "haqiqiy bilim" lariga tayanib hukm qilishadi. Bolalarning rivojlanishi ustida tadqiqot o'tkazgan shvetsariyalik psixolog olim J. V. Piagetning aytishicha, ular ko'p hollarda kamsitilish va qarshiliklardan qochib, bu bilish yo'lini qalbining tubiga yashirib qo'yadi [3, 46]. Ularning orttirgan tajribasi va hissiy idrokiga ko'ra bolalar adabiyoti, shu jumladan, bolalar folklorida fantastik sarguzashtlarga asoslangan voqealar rivoji va xayoliy, allegorik xususiyatlarga ega obrazlarga boy bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Shuning uchun bola tarbiyasi va hozirgi zamonaviy bolalar adabiyotini xalq og'zaki ijodidan alohida tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki "Bu adabiyot – hurmattalab adabiyot, e'zoztalab adabiyot... Bolaning ko'ngli ham shunday. Uni sindirib bo'lmaydi. Unga hamisha e'tibor darkor. Shundagina uning ko'ngli to'lib o'sadi. U – mehrtalab. Shundagina u muhabbatingiz mevasiga aylanadi, izingizni bosadi" [5, 8].

"Bolalar folklori – kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir" [5, 30]. Hozirgi kungacha bolalar uchun ham ezgulikni qadrlash va yovuzlikni qoralash an'anasi avloddan avlodga o'tib, sayqallashib, xalqning milliy ruhini, zakovatini, iste'dodini va til boyligini teranroq aks ettirib kelmoqda. Ushbu folklor namunalari nafaqat bolalarni umuminsoniy g'oyalar asosida tarbiyalash, o'zlikni anglash, tarixiy tajribani shaxsiy tajribaga aylantirish uchun xizmat qiladi, balki yozma adabiyot va uning an'alarining yaratilishiga genetik asos bo'lib kelyapti.

XX asrning dastlabki choragi oxirlarida boshlangan o'zbek bolalar folklori namunalari to'plash, nashr ettirish va ilmiy-estetik qimmatini o'rganishga bo'lgan harakatlar natijasi sifatida Elbekning "Bolalar qo'shig'i" (1937), Z. Husainovning "O'zbek topishmoqlari" (1966), G'. Jahongirovning "O'zbek bolalar folklori" (1975), O. Safarovning "Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari" (1983), "O'zbek xalq og'zaki ijodi" asari seriyasida "Boychechak" to'plami (1984), "O'zbek bolalar poetik folklori" (1985), "Alla-yo alla" (1999), "Chittigul" (2004), "O'zbek xalq bolalar o'yinlari" (2012), Sh. Galiyevaning "O'zbek bolalar o'yin folklori" (1998) singari ilmiy asarlar vujudga keldi. Bundan tashqari umumta'lim muassasalaridagi deyarli barcha bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligida xalq og'zaki ijodi materiallari (maqollar, topishmoqlar, "Uch og'a-ini botirlar" ertagi, xalq dostonlaridan parchalar) kiritilgani ham folklorning bolalarning ta'lim-tarbiya olishidagi ahamiyatining muhimligini ko'rsatib beradi.

NATIJALAR

Folklor elementlari – maqollar, ertaklar, latifalar, o'yinlar – bolalar va o'smirlarning tasavvuri va ijodkorligini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu elementlar bolalarga nafaqat uyquning qulayligini ta'minlash, ko'ngilochar vaqt o'tkazish imkoniyatini, balki ularning fikrlash, tasavvur qilish va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga ham yordam beradi.

Ertaklar va bolalarning tasavvur olami: Ertaklar bolalarning tasavvurlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular bolalarga g'ayrioddiy dunyo, fantastik qahramonlar, ajablanarli voqealar va muammolarni tasavvur qilish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, bolalar uchun ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki ular ertaklardagi qahramonlar va hodisalarga o'xshash yoki yangi, o'ziga xos vaziyatlarni o'ylab topishadi. Masalan, bolalar ertaklarda uchraydigan sehrli elementlar, ajdarlar, jinlar yoki boshqa fantastik mavjudotlar orqali dunyoni kengroq tasavvur qilishni o'rganadilar. 5-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan 2024-yil yangilangan adabiyot darsligida berilgan "Uch og'a-ini botirlar" ertagi dono otaning uch o'g'li otasi bergan tarbiya va nasihatiga ko'ra qilgan amallari orqali qiyin vaziyatlarda ziyraklik bilan oqilona yo'l topib chiqib ketishi va odamlarning olqishiga sazovor bo'lishi bilan o'zining tarbiyaviy g'oyalarini bolalarga singdiradi [1, 15]. Bunda ertaklarga xos bo'lgan fantastikaga yo'g'rilgan ruhni sher va ajdar bilan jang sahnasi, talonchilarga qarshi kurash hamda allegorik obraz hisoblangan to'ti obrazi o'zida aks ettirgani bilan ertakning mazmundorlik va qiziqarlilik darajasini oshirgan.

Folklor o'yinlari va qo'shiqlarning roli: Bolalar folklorida qo'shiq elementlari ham muhim rol o'ynaydi. An'anaviy xalq o'yinlari, masalan, "Oq terakmi, ko'k terak?", "To'p tosh", "Chuchvara qaynaydi" yoki "Chittigul" kabi o'yinlar bolalar uchun qiziqarli va foydali bo'lib, shu bilan birga, ularning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirib, zukko va topqir bo'lib tarbiya topishida yordam beradi. Bunday o'yinlar orqali bolalar o'zlarining rolini yaratadilar, o'yin vaziyatlarini tasavvur qilishadi va muammolarni hal qilishda ijodiy usullarni qo'llashadi. Shu jumladan, ular o'zining va boshqa o'yinchilarning fikrlarini inobatga olish, guruhda ishlash va jamoa yoki jamoaning a'zosi sifatida adolatli va to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. 6-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligi (2022-yilgi nashri) nafaqat xalq qo'shiqlarining mehnat, mavsum-marosim va lirik qo'shiqlar kabi turlarga bo'linishi haqida ma'lumot beradi, balki bolalarning tengdoshlari orqali og'zaki tarzda yodlab olgan xalq qo'shiqlarining asl matni bilan tanishish imkonini ham beradi. Ayniqsa, yeti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan odamlarning hammasi yod biladigan "Yo, Ramazon", "Oq terakmi, ko'k terak?", "Omonyor o'ynasangchi, omonyor", "Boychechak" singari xalq qo'shiqlari o'quv mashg'uloti jarayonlarida o'quvchilar uchun mavzuning dolzarblik va ularning qiziqish darajasiga ko'ra tanlanganligi yaqqol seziladi [2, 63]. Shuningdek, xalq qo'shiqlari qatorida allalarning variantlari ham berilishi bolalarning go'daklik davrida beshikda yotgan payti onalari tomonidan aytilgan allalarni darslikda keltirilgan variantlar bilan solishtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi-o'quvchi-ota va onalar munosabatida bola ta'lim-tarbiyasi uchun hamkorlikka erishishga yo'l ochadi.

MUHOKAMA

Insoniyat tarixidagi buyuk faylasuflar kabi bolalar ham o'zlarining "Men kimman?", "Men qayerdan keldim?", "Bu muammoni qanday hal qilsam bo'ladi?", "Buni kim yaratgan?" va "Yashashdan maqsad nima?" kabi savollariga javoblarni o'zining animistik qarashlari va hissiy bilishlariga asoslanib qidirib boshlaydi. Chunki ular kattalar anglaydigan nazariyalardagi abstrakt tushunchalarni ongli ravishda qabul qilishga tayyor bo'lishmaydi. Bola hayotdagi qonuniyatlarga beparvo tarzda faqat o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatda o'zgalarning adolat qilayotganinigina o'ylaydi. U unga xayrixoh va to'siq bo'luvchi omillarni anglab, uning otaonasidan tashqari unga g'amxo'rlik qiladigan kuchlar mavjudligi haqida o'ylaydi. Bolalar folkloridagi namunalar, ayniqsa, ertaklar bolalar xayolotidagi fantastik voqeliklarni

tushuntirib berishini ko'rish mumkin [3, 47]. Ertak qahramonlarining sarguzasht izlab yolg'iz safarga chiqishi va yo'lda o'ziga yangi do'stlar orttirishi ortidan bolani tashqi dunyoni bilishga bo'lgan qiziqishi tufayli xavfsizlik hissiga erishishi mumkin.

Shuni yodda tutish lozimki, kattalar berayotgan tushuntirishlari yoki bayonotlarida bolalarning mavjud bilimlari va hissiy idroklari nuqtayi nazaridan maqsad qilingan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishlari kerak [3, 48]. Chunki Quyosh Yerning atrofida aylanmasligi, balki Yer tortishish kuchi tufayli Quyoshning atrofida biror narsaga tayanmay aylanib yurishini bolaga tushintirilsa, bu ma'lumot uning fikr doirasida turli chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Dunyo bo'ylab mana shunday kattalar haqiqat deya aytgan faktik xulosalarni to'tiqushday yodlab olgan ko'plab bolalar o'zlari tushunib-tushunmay, shu tarzda o'zlarining tajribalariga, aqlining kuchi va ulkan kashfiyotlarga sabab bo'luvchi g'oyalariga bo'lgan ishonchidan mahrum bo'lishadi. Natijada, haqiqat deya tan olishga majbur qilingan abstrakt tushunchalar hosil qilgan bo'shliqlar bolalarning yoshi ulg'aygani sayin o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatadi. Ularning reallikka mos kelmaydigan mo'jizalarga ishonmaslik kerakligi haqidagi tushunchalari tufayli kattalar hayotining qiyinchiliklariga qarshi kurasha olmasligi va hayotiy tajribalaridagi jiddiy kamchiliklarga sabab bo'ladi [3, 50]. Bugungi kunda yoshlarning giyohvandlik va alkohol mahsulotlari ta'siriga berilib qolishi, astrologiyaga va turli "qora sehr" larga hayotini yengillashtirishi mumkin deya ishonib qolishi hamda turli ruhiy travmalar, suiqasd hodisalari yuqorida ta'kidlangan salbiy holatlarning natijasi sifatida yuzaga keladi. Bunday yo'llar voqelikdan qochish, vaziyatni yumshatish yoki yaxshilash uchun motivatsiyaning kamligi, irodasizlik, tajribasizlik kabi kuchsiz ruhiyat egalari tomonidan qilinadigan ishlar sirasiga kiradi.

XULOSA

Bolalar ta'limi va tarbiyasida folklorning ahamiyati juda katta bo'lib, u nafaqat madaniyatning asosiy elementlarini o'rgatish, balki bolalarning ruhiy va axloqiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Folklor, ayniqsa ertaklar, maqollar, latifalar va xalq o'yinlari orqali bolalar ijtimoiy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlarni o'rganadilar. Bu materiallar bolalarga nafaqat yaxshilik va yomonlikni ajratish, balki ularning muloqot, empatiya, va adolat kabi ruhiy qadriyatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, folklor elementlari bolalar tasavvurini kengaytirib, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Ertaklar va o'yinlar orqali bolalar o'zlarining shaxsiy hissiyotlarini, his-tuyg'ularini tushunishga va ifodalashga o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Folklor bolalar tarbiyasida to'g'ri axloqiy qarorlarni qabul qilishga yordam beradi, chunki ko'plab xalq hikoyalari va maqollarida hayotiy saboqlar, haqiqat va adolat tushunchalari keng yoritiladi. Bunday materiallar bolalar uchun doimiy ko'rsatmalar bo'lib, ularni hayotdagi qiyinchiliklarga qarshi kurashishda, to'g'ri yo'lni tanlashda yordam beradi. Shu tariqa, folklor bolalar ta'limi va tarbiyasida ruhiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan, axloqiy va estetik qadriyatlarni singdirishdagi samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Uning yordamida bolalar nafaqat madaniyatni o'rganadilar, balki o'zlarini to'liq rivojlantiradigan, ijtimoiy va ruhiy jihatdan sog'lom shaxslar sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot: 5-sinf (1-qism) uchun darslik / Yo'ldoshev, Q. B., Olimjonov, O. O., Vusufjonova, N. N., Qambarova, S. I., To'xliyeva, D. B.; muharrir X. A. Ibrohimov. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 100 b.
2. Adabiyot: 6-sinf uchun darslik / Mirzayeva, Z. I., Djalilov, K. Q. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
3. Bettelheim, B. The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. – New York: Vintage Books (Random House), 1976. – [Portions of this book originally appeared in The New Yorker].
4. Dundes, A. The Study of Folklore. – New York: Prentice-Hall, 1965. – 443 p.
5. Safarov, O., Jamilova, B., Safarova, N. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 256 b.

